

---

“Yoshlar-kelajagimiz” jamg‘armasi Qo‘shtepa tumani filiali tomonidan tadbirkorlikka qiziquvchi yoshlar uchun “Biznes sayohat” tashkil qilindi

“Yoshlar-kelajagimiz” jamg‘armasi Qo‘shtepa tumani filiali tomonidan tadbirkorlikka qiziquvchi 15 nafardan ziyod o‘quvchilar bilan birgalikda Marg‘ilon shahridagi “Navro‘z” sanoat zonasida joylashgan “Marg‘ilon Roshidoniyy g‘ishtlari” mas‘uliyati cheklangan jamiyatiga “Biznes sayohat” tashkil qilindi.

“Biznes sayohat” davomida o‘quvchilar ushbu korxonaga tomonidan ishlab chiqarilayotgan chinni mahsulotlarini tayyorlanish jarayonlari bilan yaqindan tanishdilar. Mahsulotlarni loydan yasashdan boshlab ularga rang berish, gul chizish, pechlarga qanday holatda qo‘yish hamda tayyor mahsulotga aylantirish jarayonlari yoshlarimizda katta qiziqish uyg‘otdi.









2019-11-07 18:05:42